

**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
Farg‘ona filiali**

**“MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING  
ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLARI”  
MODULI**



**3- MAVZU:  
VAKOLATLI DAVLAT ORGANINING  
TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL  
ETISHGA OID ME’YORIY-HUQUQIY  
HUJJATLARI. “ILK QADAM” DAVLAT DASTURI**

**O‘qituvchi:**

**Tishabayeva Irodaxon Rasulovna**

# Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va Sport vazirligi jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi
2. Vakolatli davlat organining maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari.  
“Ilk qadam” Davlat dasturi

**1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR  
SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI JISMONIY  
TARBIYA VA SPORT SOHASIDA YAGONA DAVLAT  
SIYOSATINI AMALGA OSHIRUVCHI MAXSUS  
VAKOLATLI DAVLAT BOSHQARUVI ORGANI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
«JISMONIY TARBIYA VA SPORT TO'G'RISIDA»GI  
QONUNI**



Mustaqillik yillari mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, yosh avlod ongiga sog‘lom turmush tarzini singdirish, sohani rivojlantirish orqali yurtimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeini yanada oshirish kabi masalalar davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilab olindi.

Shu o‘rinda Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini tartibga solishga xizmat qiladigan huquqiy asos yaratilgani va takomillashtirilib borilayotganini qayd etib o‘tish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonunida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

# **«JISMONIY TARBIYA VA SPORT TO‘G‘RISIDA»GI QONUNINING 2-BOBI QUYIDAGI MODDALARIDA DAVLAT ORGANLARINING VAKOLATLARI BELGILAB QO‘YILGAN.**

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

8-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

12-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

## **«JISMONIY TARBIYA VA SPORT TO‘G‘RISIDA»GI QONUNINING 2-BOBI 8-MODDASIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI MAXSUS VAKOLATLI DAVLAT ORGANINING VAKOLATLARI**

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;



Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;



Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan monitoring va nazoratni, shuningdek jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi tahlilini amalga oshiradi;




O‘z vakolatlari doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek sport normativlarini ishlab chiqishni amalga oshiradi hamda ularni tasdiqlaydi;

Sport markazlarini va dopingga qarshi markazlarni, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta’lim tashkilotlarini hamda ilmiy tashkilotlarni tashkil etish bo‘yicha takliflar kiritadi va ularning faoliyati tashkil etilishini ta’minlaydi;

Sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifini, shuningdek u to‘g‘risidagi nizomni, sport turlarini va sport turlarining tarmoqlarini e’tirof etish, ularning reestrini yuritish tartibini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reestrini yuritadi, uni yuritish tartibini belgilaydi;

Xalqaro va Respublika miqyosidagi sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantiradi hamda manfaatdor tashkilotlar bilan birlgilikda ularning moliyalashtirilishi va o‘tkazilishini ta’minlaydi;



Sport unvonlari, sport razryadlari va malaka toifalarini berish tartibini tasdiqlaydi;




Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlaridan foydalanish tartibini tasdiqlaydi, shuningdek ularning pasportlarini beradi;



Trenerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma beradi;

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA TO‘G‘RISIDA” QONUNI



**Qonunchilik  
palatasi  
tomonidan  
2019-yil  
22-oktabrda  
qabul qilingan**



**Senat  
tomonidan  
2019-yil  
14-dekabrda  
ma'qullangan**

# **MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING RO'YOBGA CHIQARILISHINI AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLAR QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat  
inspeksiyasi

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif  
vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash  
vazirligi;

O'z tasarrufida maktabgacha ta'lif tashkilotlari  
bo'lgan boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi  
organlari;

**DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA  
“ILK QADAM” VA “TAKOMILLASHGAN ILK QADAM”  
DAVLAT O‘QUV DASTURI**

**“Ilk qadam”**

*O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha ta’lim  
vazirligining 2018 yil 7-iyul  
4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori  
bilan tasdiqlangan va nashr  
uchun tavsiya etilgan.*

**“Takomillashgan ilk  
qadam”**

*O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha ta’lim vazirligining  
Muvofiqlashtiruvchi kengashining  
2022 yil 4-fevraldagi 1-sonli  
bayonnomasi bilan tasdiqlangan  
va nashr uchun tavsiya etilgan.*

***“ILK QADAM”***



***6-bobdan  
iborat***

***“TAKOMILLASHGAN  
ILK QADAM”***



***8-bobdan  
iborat***

## **“ILK QADAM”**



### **Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari**

- Bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid davlat talablari asosida hamda Davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tshkil qilish va amalga oshirish;
- Bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- Bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish.

## **“Takomillashgan ilk qadam”**



### **Maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari**

- Bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida hamda Maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- Bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish

**“Takomillashgan  
ilk qadam” to‘plami  
oltita qo‘llanmani  
o‘z ichiga oladi**

1.Maktabgacha  
ta’lim  
tashkilotlarida  
ta’lim dasturini  
ishlab chiqish

2.Shaxsga  
yo‘naltirilgan  
yondashuv  
asosida ta’lim  
jarayonini  
rejalashtirish

6.Kuzatish va  
baholash

5.Oilalar va  
mahalliy  
jamoatchilik  
bilan  
hamkorlik;

4.Maktabgacha  
ta’limda ta’lim  
jarayonini  
individuallashtirish  
alohiba ehtiyojli  
bola inklyuziyasi.

3.O‘yin orqali  
ta’lim olish



**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT!**